



## XIX ASRDA O'RTA OSIYO MUSULMONLARINING HAJ ZIYORATI

Aymatova Zarnigor G'ulomovna,  
Buxoro davlat Universiteti Jahon tarixi kafedrasasi o'qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning sovet hokimiyati yillarida O'rtal Osiyo musulmonlarining haj ziyorati masalalari yoritilib berilgan. Davr birlamchi manbalar va adabiyotlar qiyosiy tahlili orqali o'rganilib, tegishli ilmiy xulosalar qilingan. Sovet hokimiyati yillarida musulmon aholisining og'ir sharoit yashagani doim taqiq ostiga olingani ularga sun'iy to'siq qo'yilganini to'g'risida yozilgan. Diniy bayramlarning taqiqlanishi, ayrim diniy marosimlar hattoki, janoza marosimlar ham taqiqlangani ko'rsatib bergen. Ba'zi davrlarda ya'niy ikkinchi jahon urushi yillarida dinga nisbatan SSSRda yumshoqlik siyosati yuriladi bundan maqsad diniy ullamolarni xalqni fashizmga qarshi kurashda yakadil bo'lib birgalikda kurash olib boorish nazarda tutilgan.*

*Kalit so'zlar: General-gubernator, musulmonlar, diniy mutaassiblik, madrasa, masjid, Turkiya, SSSR, Diniy ishlar qo'mitasi, Navro'z, maxsus xizmat.*

*Аннотация: В данной статье освещаются вопросы паломничества мусульман Средней Азии в годы советской власти в XX веке. Период был изучен путем сравнительного анализа первоисточников и литературы, и сделаны соответствующие научные выводы. Писано о том, что в годы советской власти мусульманское население жило в тяжелых условиях, оно всегда находилось под запретом, и от него ставился искусственный заслон. Запрещены религиозные праздники, некоторые религиозные обряды и даже похоронные обряды. В отдельные периоды, то есть в годы Второй мировой войны, в СССР проводилась политика снисходительности к религии, целью которой было объединение народа в борьбе с фашизмом.*

*Ключевые слова: генерал-губернатор, мусульмане, религиозный фанатизм, медресе, мечеть, Турция, СССР, Комитет по делам религий, Навруз, спецслужба.*

*Abstract: This article highlights the issues of pilgrimage of Central Asian Muslims during the years of Soviet power in the 20th century. The period was studied through the comparative analysis of primary sources and literature, and appropriate scientific conclusions were made. It has been written about the fact that during the years of Soviet power, the Muslim population lived in difficult conditions, they were always banned, and an artificial barrier was placed on them. The prohibition of religious holidays, some religious ceremonies and even funeral rites have been banned. In some periods, that is, in the years of the Second World War, the policy of lenience towards religion was carried out in the USSR, the goal of which was to unite the people in the fight against fascism.*

*Key words: Governor-General, Muslims, religious fanaticism, madrasa, mosque, Turkey, USSR, Religious Affairs Committee, Nowruz, special service.*

**Kirish:** Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Mustaqillik sharofati bilan hamyurtlarimiz hajga va Umraga-Makka va Madina ziyoratiga, diniy farzni ado qilishga borib kelmoqdalar. Lekin sovet hokimiyati o'rnatilgandan dinga nisbatan boshqacha kayfiyat yuzaga keldi. Haj ziyoratini amalga oshirish uchun taqilalar qo'yildi lekin ba'zi davrlarda ularga haj ziyoratini ado etishaga ruxsat berildi bundan asosiy maqsad esa SSSRning jahon xalqlariga o'zining erkin va ozod davlat deb ko'rsatishdan iborat edi.

**Natija va muhokama:** Sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar Turkiston musulmonlarining haj ziyorati Rossiya imperiyasi siyosati bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan. Bu Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, butun Rossiya imperiyasining qo'shni mamlakatlar, ayniqsa, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Britaniya Hindistoni bilan ko'p tomonlama munosabatlardan kelib chiqqan. Ikkinchidan, bu jarayon iqtisodiy omil bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, katta miqdordagi mablag' Sharq mamlakatlariga, asosan Saudiya Arabistoniga oqib ketardi. To'g'ri, Saudiya Arabiston nomi bilan bir butun davlat 1932 yilda tashkil topgan, biroq tarixiy adabiyotlarda bu atama, bu sanadan oldin qo'llanilgan. Haj ziyoratini ado etib qaytgan musulmon vakillarning axloqiy-ma'naviy dunyoqarashida o'zgarishlar sodir bo'lib, ular dunyomi, hayotni boshqacha idrok qila boshlashi ham muhim ahamiyatga ega edi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Turkiston general – gubernatorligi davrida Makka va Madina hajiga boruvchilar soni ko'p edi. Rossiya imperiyasi musulmonchilik bilan hisob-kitob qilishga majbur bo'lgandi. Har yili

o‘lkada 2-3 bor ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlari imperiya ma’murlarini ehtiyotkorlik bilan siyosat yuritishga undagan.

Diniy e’tiqod mutaassiblik, eskilik sarqiti sifatida qaraladigan bo‘ldi deb hisoblanadi. Kommunistik mafkura hukmronligi sharoitida musulmon aholi og‘ir tur mush sharoitiga tushib qoldi. Diniy marosimlarning taqiqlab qo‘yilishi, madrasa va masjidlar yopilishi, islam me’moriy obidalarikning vayron qilinishi, 1917 – 1924, 1925 – 1935- yillardagi harbiy to‘qnashuvlar o‘zbek xalqi ma’naviy – madaniy rivojiga o‘nglab bo‘lmash zarbalar berdi. Ta’qib va tazyiqlar bolsheviklar tomonidan diniy ulamolarga ham, musulmon aholiga ham o‘tkazildi. Musulmon uyg‘onish davri moddiy va ma’naviy yodgorliklari qarovsiz holda qolib, yarim xaroba holatiga keltirildi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixi o‘rganilar ekan, 1920 – 1930 yillarda Farg‘ona vodiysi, Buxoro hududlaridan ayrim yillarda 2 – 3 kishi haj ziyoratiga borganligi kuzatiladi. 1976-1992 yillarda mayjud bo‘lgan “Vatan” jamiyati faoli Ahmadjon Luqmonov sovet hokimiyyati yillarida har yili SSSRdan o‘rtacha 20 kishidan 30 kishiga qadar musulmonlar haj ziyoratiga borishini ta’kidlanydi. Haj ziyorati uchun Makka va Madinaga amallab yetib olgan barmoq bilan sanarli shaxslarning ham ayrimlari Vatanga qaytmasdan, u yoki bu Sharq mamlakatlaridan birida yashab qolishgan. Ularning ko‘philiklari Turkiya Respublikasini ikkinchi Vatan sifatida tanlashardi. Sobiq ziyoratchilar Turkiya shaharlarda savdo – tijorat ishlari, hunarmandchilik, hamollek va boshqa xizmatlar bilan shug‘ullanishgan. Ikkinchi jahon urushi yillarda (1939 – 1945 yy.) sovet hukumati denga munosabatda “yumshoqlik” yo‘lini tutdi. Maqsad fashizmga qarshi kurashda diniy ulamolar va musulmon aholini o‘z tarafida turishi og‘ir damda jamiyat yakdilligiga erdishish edi. Qolaversa, SSSR musulmon mamlakatlari bilan yaqinlashgandi. 1943 yildan diniy rasmiy idoralar tashkil etildi. Toshkent, Ufa, Boku, Bo‘ynoqda hududlar bo‘yicha musulmon boshqarmalari tashkil etildi. Jumladan, O‘rta Osiyo musulmonlari diniya boshqarmasi (keyinchalik O‘rta Osiy va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi, Mavarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasi) tuzildi. Mazkur diniy boshqarmaga va O‘zbekiston SSR hukumati Maorif nozirligi huzuridagi “Diniy ishlar qo‘mitasi” ga haj ziyoratiga borish uchun rasman ariza berishga ruxsat etildi. Haj ziyoratiga borish uchun juda ko‘p sun’iy to‘siqlardan o‘tish kerak edi. Shuning uchun ziyyortachilarining yillik o‘rtacha soni, barmoq bilan sanarli bo‘lib qolayotgan edi. 1944 yilda Sovet Ittifoqidan haj ziyoratiga borganlar soni 6 naftarni tashkil etdi. 1953 yilda esa 23 kishi Makka va Madina hajida bo‘lib qaytgandi. 1944-1953 yillarda har yili o‘rtacha ziyyoratchi musulmonlar soni 15 – 18 nafardan oshmagan. Ziyyoratga borib qaytgan musulmonlarning 50 – 60 foizini O‘zbekiston musulmonlari tashkil etgan. Albatta, ko‘p millionli SSSR davlati aholisi uchun yuqorida ko‘rsatilgan raqamlar o‘sha davr uchun, ahamiyatsiz, nomigagina haj ziyoratini amalga oshirishga ruxsat berilganligini ko‘rsatadi.

Sovet hukumati organlari haj ziyoratiga ariza bergen shaxslarni (fuqarolarni) ijtimoiy kelib chiqishiga katta e’tibor qaratardi. Ziyyorat uchun ruxsat berilganlarning asosiy qismi diniy ulamolar, magazin mudirlari, qorovullar edi. Hukumat a’zolari qoloqlik va mutaassiblikda ayblanishdan, egallab turgan mansablaridan ajralib qolish xavfidan qo‘rqib, ular haj ziyorati uchun ariza berishmasdi. Haj ziyoratidan qaytgan kishilarga hoji osh berish, xatm – qur‘on qilish, o‘zini bildirish amalda ta’qilangandi. Nomigagina ishlab turgan 2-3 madrasa va masjitalarning xizmatchilari haj ziyoratiga ketadiganlar umumiy ro‘yxatga kiritilardilar. Aslida haj ziyorati istagini bildirganlar va hukumat organlariga ariza bilan murojaat qilganlar aslida ko‘p sonli bo‘lardi. Musulmon aholi har qanday to‘siq, taqiqqlarga qaramay ariza berishda davom etaverGAN. 1961 yilda Makka va Madina haj ziyoratiga borish istagi bilan 100 nafar musulmon (O‘zbekistondan) murojaat qilgan. Uzoq tekshiruvlardan keyin faqat 6 nafar musulmonga haj ziyorati uchun ruxsat berilgan. Haj ziyoratiga yuborish musulmonlarning Diniya Boshqarmasi ixtiyorida emasdi, bu jarayon hukumat va SSSR Davlat Xavfsizligi (KGB) idorasi tomonidan nazorat qilinardi. Musulmonchilik qoidalarini bajarish bilan bog‘liq ishlar 1970 – yillar oxiri – 1980 – yillarda yanada qat’iy ta’qib ostiga olindi. O‘zbek xalqi uchun asrlar bo‘yi yashab kelgan urf – odat va an‘analalar qoloqlik, diniy mutaassiblik ko‘rinishlari qoldiqlari sifatida qoralandi va amalda taqiqlab qo‘yildi. Ro‘za hayiti, Qurbon Hayiti bayramlari nishonlanmas, hatto, “Navro‘z” ham diniy bayram deb e’lon qilindi.

1980 – yillar boshida musulmon odat va marosimlari taqiqlandi, hatto janoza marosimlari ham o‘tkazilmay qo‘yildi. Ayniqsa, kompartiya a’zolari va hukumat rahbarlari o‘zlarini yaqinlari janozasiga ham borolmay qoldi. Zo‘rovonlik yo‘li bilan musulmon urf – odatlari taqiqlanishi haj ziyoratiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Tarixiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadi, 1960 – 1980 – yillarda har yili o‘rtacha 25 – 38 nafar musulmon ziyyoratchi Makka va Madina hajida bo‘lib qaytgan xolos . Haj ziyoratida bo‘lgan aholi orasiga “maxsus xizmat” vakillari kiritilib, ular qat’iy jadval asosida ziyyorat arkonlarini bajarishar edi. Shuningdek, ziyyoratchilarining asosiy qismini



diniy muassasa va diniy tashkilotlarda faoliyat yuritganlar tashkil etganligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi. Hukumat siyosatida mafkuraviy kuch va ta'sir o'tkazishdan himoyalanish musulmon aholi uchun ko'plab qiyinchilik va ruhiy azoblarni yuzaga keltirgandi.

Xulosa: Sovet hokimiyyati yillarda Sobiq Ittifoq, jumladan, O'zbekistondagi musulmonlarning muqaddas shaharlar: Makka va Madinaga haj ziyyoratini butunlay taqiqlab qo'yilmaslik maqsadi jahon jamoatchiligi ko'zi oldida SSSRni erkin va ozod xalqlar ittifoqi qilib ko'rsatishga qaratilgan edi. Sovet hukumati islom diniga, musulmon aholi va din ulamolariga nisbatan munosabatda Rossiya imperiyasidan ham bir necha karra ortiq salbiy munosabatda bo'lgandi. Turkiston Rossiya imperiyasi ta'sirida bo'lgan yillarda musulmon ziyyoratchilar soni xar yili 5 – 7 ming nafar atrofida bo'lsa, sovet hokimiyyati yillarda ularning soni bir yilda bir necha o'n kishidan oshmaganligi yuqorida fikrimizni isbotlaydi.

#### Adabiyotlar

1. Alimova D. Shodmonova S. Iz istorii palomnichestva musliman Syentralnoy Azii v Mekku (kones XIX – nachalo XXI vv.) // O'zbekiston tarixi; 2011. – №6. – S. 49 – 61.
2. Odilov A. Sovet hukumronliginning dastlabki yillardagi diniy siyosat tarixidan // O'zMU xabarlari. 2008. - № 2. B. 62 – 63.
3. Sayid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi. – Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, - 2004. (fors-tojik tilidan t.f.n.dos.H.H.To'rayev tarjiması) – 144 b.
4. Hayitov Sh. O'zbek muhohirligi tarixi. T.: "ABV MATBVOT KONSALT"; 2008. – 208 b.